

92 010-51-00,

SHARTNOMA № 1
MAXSULOTNI SOTISH VA XARID QILISH

4785

« 29 » Yanvar 2022 yil

Farg'ona sh.

Ushbu shartnoma bir tomondan nizomga asosan ish yurituvchi "FAR DISAMED LAB" MChJ (kelgusida «Maxsulot yetkazib beruvchi» deb ataladi) nomidan Hudayberdiev A.A. va ikkinchi tomondan Ustaviga asosan ish yurituvchi Toshloq tumani MAEKAZIY SHIFOHONASI (kelgusida «buyurtmachi» deb ataladi) nomidan raxbar Toshloq TB. A.M. To'g'riboyev. tomondan quyidagilar tug'risida tuzildi:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1 «Maxsulot yetkazib beruvchi» maxsulotni ushbu shartnoma shartlari bo'yicha yetkazib berishga, «buyurtmachi» esa uni qabul qilib olishga majbur.
- 1.2 Maxsulot assortimenti va baxosi (spetsifikatsiyasi)

№	Maxsulot nomi	O'lchovb irligi	Miqdori	Narxi	QQS	Summasi
					summa	
1	Steril bolmagan qolqoplar, lateks	dona	4 000	1 000	QQS siz	4 000 000
						4 000 000

1.3 Shartnomaning umumiy summasi 4 000 000(tort million)sumni tashkil etadi.

2. BAXO VA TO'LOV TARTIBI

- 2.1. Maxsulot uchun to'lov pul utkazish yuli bilan amalga oshiriladi.
- 2.2. «Buyurtmachi» shartnoma umumiy summaning 30%ni ya'ni 1 200 000 sumni avans tariqasida shartnoma to'liq kuchga kirgan kundan boshlab 10 bank ish kuni mobaynida, qolgan qismi ya'ni 2 800 000 sumni «maxsulot yetkazib beruvchi» maxsulotni yetkazib bergan kunidan boshlab 10 bank ish kuni davomida «maxsulot etkazib beruvchi» ning bank xisob raqamiga o'tkazib berishi shart.

3. MAXSULOT YETKAZIB BERISH MUDDATI VA TARTIBI

- 3.1. «Maxsulot yetkazib beruvchi» maxsulotni xisob raqamiga avans mablag'i kelib tushgan kundan 5 bank ish kunida yetkazib beradi.
- 3.2. Maxsulot «MAXSULOT YETKAZIB BERUVCHI» ni transportida tashiladi.
- 3.3. Maxsulot xisob varoq fakturaga imzo qo'yib olgan vaqtdan boshlab «Buyurtmachi» mulkiga aylanadi.

4. MAXSULOT TOPSHIRISH VA QABUL KILISH

- 4.1. Xo'jalik shartnomasi taraflarining huquqlari Xo'jalik shartnomasi taraflari belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega: xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish; xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish; davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish; boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma'lumotlarni to'plash; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo'llash. Oldingi tahrirga qarag. Xo'jalik shartnomasining taraflari qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.
- 4.2 «Buyurtmachi» vakolati shaxs qabul qilib olish jarayonida maxsulotning ishga yaroqliligini, sifatini, miqdori jixatidan shartnomaga mos kelishini tekshirib olishi lozim. Maxsulot tuliq qabul qilib olingandan so'ng maxsulotni saqlash javobgarligi «Buyurtmachi» vakolatli shaxs zimmasiga o'tadi.

5. MAXSULOT SIFATI

- 5.1. Maxsulot sifati Uzbekiston Respublikasi Davlat standarti talablariga javob berishi shart.
- 5.2. Maxsulot transpo'rtida tashib ketilishi uchun qulay qilib jixozlanishi lozim.

6. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. «Buyurtmachi» shartnomaning 2.2-bandida kursatilgan to'lovni belgilangan muddatdan kechiktirib yuborgan xolda xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summaning 0,4% i miqdorida peniya tulaydi. Lekin tulangan peniyaning umumiy miqdori kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan oshmasligi kerak.
- 6.2. «Maxsulot yetkazib beruvchi» maxsulotni shartnomaning 3.1 bandida ko'rsatilgan muddatda yetkazib bermagan taqdirda, kechiktirilgan xar bir kun uchun yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining 0,5%i miqdorida «Buyurtmachi»ga peniya to'laydi, lekin peniyaning umumiy miqdori yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining 50% dan oshmasligi kerak.

“FAR DISAMED LAB” MChJ hamda Toshloq tuman Tibbiyot Birlashmasi o'rtasida tibbiy (qo'lqop) maxsulotlarini sotib olish to'g'risidagi 1-shartnomaga

YURIDIK XULOSA

Shartnoma miqdori: 4000 000 (to'rt million so'm)

Toshloq tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti M.Rahimov yuqoridagi shartnoma yuzasidan xuquqiy ekspertiza o'tkazdim. Huquqiy ekspertiza O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan o'tkazildi.

Shartnomada ko'rsatilgan munosabatlarning amaldagi qonun normalari talablariga mos kelishi, shartnoma shartlarining qonun xujjatlari talablariga mos kelishi, shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonun xujjatlari talablariga mos kelishi huquqiy ekspertizaning predmeti xisoblanadi.

Huquqiy ekspertiza o'tkazilayotgan vaqtda O'zbekiston Respublikasining amalda bo'lgan hamda yuridik xizmat uchun foydalanish mumkin bo'lgan barcha qonun xujjatlari o'rganib chiqildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

Shartnoma ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Shartnoma shartlari O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 6,7,15-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-385-moddalari talablariga mos keladi.

Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 24-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga mos keladi.

Yuqoridagilarga asosan, mazkur shartnoma qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Toshloq tumani Yuridik xizmat
markazi bosh yuristkonsulti:



M.Rahimov